

Mediatsiya nima?



Mediatsiya nima?

2018 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan fuqarolik huquqiy munosabatlar, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yakka mehnat nizolari va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, taraflarning mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa taraflarning xohish-istagi asosida, suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar, shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida mediatsiya tartib-taomili qo'llanilishi belgilandi.

Mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli. Qabul qilingan hujjatga asosan u nizolarning 3 ta toifasi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

- fuqarolik huquqiy munosabatlardan, sh.j. tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolar;
- yakka mehnat nizolari;
- oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar.



Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya — yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham chinakam bozor mexanizmlarining joriy qilinishi va amalga oshirilishi bozor munosabatlarining har bir sohasini tartibga soluvchi zarur huquqiy zamin yaratilishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining imzosi bilan kuni kecha amaliyotga tatbiq qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun muomalaga mediatsiyaga oid yangi tushunchalarni olib kirishi barobarida, jamiyat hayotining yana bir sohasini huquqiy jihatdan tartibga soladigan bo'ldi. Ayni paytda O'zbekiston nizolarni hal qilishning muqobil usuli, mediatsiyadan foydalanishning dastlabki bosqichida turibdi.

Asosan Mediatsiya — ingliz tilidan tarjima qilinganda "vositachilik" ma'nosini anglatadi. U kelib chiqqan nizoni taraflarning o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadidagi ixtiyoriy roziligi asosida, xolis bo'lgan shaxs, ya'ni mediator ko'magida hal qilish usulidir. Bugungi kunda O'zbekistonda mediatsiyaga o'xshash yarashtiruv protseduralari turli nizolarni hal etishda qo'llanib kelinadi. Jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan nizolashayotgan taraflarni, xususan, qo'shnilar o'rtasidagi nizolarni, oilaviy nizolarni yarashtirish faoliyatini ham mediatsiyaning bir shakli sifatida ko'rish mumkin. Jamiyatimizda avvaldan mahalla raislari qo'shnilar, oila a'zolari, er-xotin o'rtasidagi nizolarni hal etish vazifasini, ya'ni mediator vazifasini bajarishgan.

Xorijiy davlatlarga masalan Buyuk Britaniyada mediatsiya barcha kategoriyadagi sud ishlarida qullaniladi. Probatsiya xizmati jabrlanuvchi va ayblanuvchi urtasida yetkazilgan zararni bartaraf etish lozimligini tushuntirib vositachilikni amalga oshirishi mumkin. Agar mediatsiya jarayonida tomonlar urtasida kelishuvga erishilsa va shartnoma imzolansa, ishni kurayotgan sudbaya bu xolatni jazoni yengillashtiruvchi xolat sifatida e'tiborga oladi. Natijada ikkala tomon xam manfaat kuradi. Jumladan, jabrlanuvchi aybdorga jazo tayinlash jarayonida bevosita qatnashgan holda, shartnomaning majburiy sharti bulgan kompensatsiya mixdorini uzi belgilaydi. O'z navbatida aybdor xam uziga nisbatan tayinlanayotgan jazoning yengillashtirishida manfaatdor bulib hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada qullaniladigan mediatsiyaning yana bir turi bu politsiya mediatsiyasi bulib, ~~tarixan dastlab voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda qo'llanilgan, keyinchalik esa aybdor yoshidan qat'i nazar barcha yoshdagilarga nisbatan qo'llanila boshlangan.~~

Shu tariqa, mediatsiya - oldingi mexanizmlardan farqlanuvchi yangi ko'rinish. Har qanday yangilik kabi u amaliyotda sinovdan o'tkaziladi.

B. Enazarov - Sux tuman adliya bo'limi

bosh maslahatchisi

2020-05-19 09:14:04